

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30. 12. 2019. Qx.13.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

MAMTALIYEV SHERZODBEK SODIQJONOVICH

**O‘ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJDAN KELTIRILGAN GOLSHTIN
ZOTLI NASLDOR BUQALARNI GENOTIPI BO‘YICHA TANLASH VA
BAHOLASH**

06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Mamtaliyev Sherzodbek Sodiqjonovich

**О‘zbekiston sharoitida xorijdan keltirilgan golshtin zotli nasldor buqalarni
genotipi bo‘yicha tanlash va baholash**

.....

Мамталиев Шерзодбек Содикжонович

**Отбор и оценка быков-производителей завезённых голштинской породы,
по генотипу в условиях Узбекистана.....**

Mamtaliyev Sherzodbek Sodiqjonovich

**Selection and evaluation of breeding bulls of the Holstein breed, by genotype in
the conditions of Uzbekistan.....**

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

MAMTALIYEV SHERZODBEK SODIQJONOVICH

**O‘ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJDAN KELITIRILGAN GOLSHTIN
ZOTLI NASLDOR BUQALARNI GENOTIPI BO‘YICHA TANLASH VA
BAHOLASH**

06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Тошкент – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Qx978 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.tdau.) hamda «Ziyonet» Axborot-ta‘lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Dosmuxamedova Muxayyo Xusnitdinovna
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Madraximov Shodlik Nazarovich
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori (DSc), dotsent

Amirov Shavkat Kuziboyevich
qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

Etakchi tashkilot:

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tdqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 – raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 260-48-00; faks: (99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz Toshkent davlat agrar universiteti ma‘muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (555426 raqami bilan ro‘yxatga olingan) Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy. ToshDAU ARM binosi, 1-qavat. Tel.: (99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «__» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.R.Umarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

A.N.Batirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.d.(DSc), dotsent

Q.J.Shakirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.-x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning qishloq xo‘jaligi rivojlangan yirik davlatlarda chorvachilik cohasi ayniqsa, qoramolchilik muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunga kelib mahsuldorlik hamda nasldorlik xususiyatlari yuqori darajada bo‘lgan qoramollar hisobidan, sudor va nasldor qoramol podalarini shakllantirish hamda nasldorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha takomillashtirish asosiy masalalaridandir. Jahon oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma‘lumotlariga qaraganda «AQSH da 9,5 mln, Xitoyda 6,5 mln, Hindistonda 5,0 mln, Braziliyada 3,0 mln va Rossiyada 2 mln boshdan ziyod Golshteyn populyatsiyasiga mansub qoramollar mavjudligi keltirib o‘tilgan»¹ Qoramollarning xo‘jalik qimmatli belgilarini yaxshilashda to‘laqonli ozuqa ratsionlarini ishlab chiqish, qoramollarni zamonaviy saqlash va parvarishlash sharoitlariga aloxida e‘tibor qaratilgan holda ularni mahsuldorlik va nasldorlik xususiyatlarini yaxshilash orqali bosh sonini ko‘paytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘z navbatida chorvachilik rivojlanayotgan davlatlarda qoramollar seleksiyasi va naslchiligini yaxshilash borasida seleksion tadqiqotlar olib borilib ijobiy natijalarga erishib kelinmoqda. Hozirda xududlar tabiiy iqlim global o‘zgarishi yuzaga kelayotgan bir davrda yangi yaratilgan zotlarni ko‘paytirish va ularni saqlashda yangi yaratilgan innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish orqali sut va go‘sh t yo‘nalishidagi qoramollarning mahsuldorlik va nasldorlik xususiyatlarini bir meyorda saqlash borasida qiziqarli tadqiqotlar olib borilmoqda. Mahsuldorligi yuqori golshtin zotli qoramollarni ko‘paytirish ularni turli xududlar ekstremal tabiiy iqlim sharoitlariga moslashtirish orqali nasldorlik xususiyatlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda chorvachilik tarmog‘ini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilib sohani rivojlantirishda zamonaviy usullar va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali xorijdan keltirilayotgan qoramollarning xo‘jalik qimmatli belgilari jumladan sut va go‘sh mahsuldorligini saqlab qolish va ularni mahalliy lashtirish orqali aholini go‘sh va sut mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. «... ichki bozorga sifatli va arzon chorva va parranda mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda chorvachilik va parrandachilik xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash samaradorligi oshirish»² kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib mamlakatimizda xorijdan import qilingan nasldor qorala zotli buqalarning naslchilik xo‘jaliklarida saqlab turish, ularni yuqori sperma mahsuldor ko‘rsatkichlari bo‘yicha tanlash hamda seleksion belgilari bo‘yicha bonitirovka qilish, buqalarni yoshi va tirik vazniga qarab oziqlantirish ratsionlarini ishlab chiqish bilan bir vaqtda klinik va gemotologik ko‘rsatkichlarini doimiy tahlil qilib borish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

¹ O‘zbekistonda chorvachilik. Bugungi holat, muammolar va taraqqiyot istiqbollari. Agrar sektorni rivojlantirish texnologiyalari nuqtaiy nazaridan tahlili. BMT. “Nasaf” nashriyoti. 2010.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan ko‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4576-son Qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan ko‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4576-son hamda 2023 yil 24 avgustdagi PQ-285 sonli «Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» dagi Qarorlari, chorvachilik tarmog‘iga tegishli boshqa normativ-xuquqiy xujjatlarda belgilangan topshiriqlar ijrosini bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi³.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Golshtin zoti ko‘paytiriladigan yirik davlatlarda ularning seleksiya va naslchilik ishlarini doimiy nazoratga olib borish, sut va go‘sh t mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini takomillashtirish maqsadida ozuqa ratsionlarini shakllantirish qoramollarni saqlashda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali parvarishlashning yangi usullarini tadbiq etish borasida bir qator xorijiy olimlar jumladan, A.N.Prudov, A.P.Soldatenkov, M.G.Spivak, A.G.Trufanov, A.I.Bich, M.M.Lebedov, L.K.Yernstlar tomonidan ilmiy – tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va amaliyotga tadbiq qilingan.

Mamlakatimizga xorijdan olib kelingan Golshtin tipiga mansub zotlarning respublikamizning turli xududlariga moslashtirish, go‘sh t va sut mahsuldorligini oshirish, saqlash va ozuqa ratsionlarini takomillashtirish orqali ularni xo‘jalik qimmatli belgilarini bir meyorda saqlab turish borasida mahalliy olimlardan Sh.A.Akmalxanov, E.U.Karchevskiy, U.N.Nosirov, A.Kaxxarov, I.Maqsudov, M.X.Dosmuxamedova, Q.J.Shakirov, B.A.Qahramonov, Sh.N.Madraximov, J.Xujamov va O.E.Mamatqulovlar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib ijobiy natijalarga erishilgan.

Respublikamizning o‘ziga xos tabiiy iqlim sharoitida import qilingan qoramol zotlari xo‘jalik qimmatli belgilarini saqlab qolish, keskin o‘zgaruvchan tabiiy iqlim sharoitlariga moslashtirish maqsadida turli seleksiyaga mansub qoramol zotlari ustida ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Jumladan Golshtin zotli sigirlar sut mahsuldorligi hamda buqalarning nasldorlik va go‘sh t dorlik xususiyatlarini ilmiy tahlil etish orqali ularni ilmiy jixatdan xo‘jalik qimmatli belgilarini oshirish usullarini yaratish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Toshkent davlat agrar universitetining QX-A-QX-2018-945 raqamli «Naslchilik korxonasi ga import qilingan yaxshilovchi zotlar buqalarini genotipi, shaxsiy xususiyatlari, sperma mahsuldorligi bo‘yicha baholash va tanlash hamda sun‘iy urug‘lantirish tizimida foydalanish” mavzusidagi amaliy loyiha asosida bajarilgan (2018-2020 y.y.).

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 24 avgustdagi “Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-285-son Qarori.

Tadqiqotning maqsadi. Germaniyadan import qilingan nasldor golshtin zotli (qora-ola tusli) nasldor buqalarning, ajdodlar ko'rsatkichlari bo'yicha tanlash va aniq kun tartibi asosida urug' miqdori va sifatini aniqlash, iqlimga moslashish xususiyatlarini o'rganishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

Import qilingan golshtin zotli nasldor buqalarni genotipi bo'yicha tanlash va guruhlariga ajratish;

buqalarning yil fasllariga bog'liq holda, rivoji va ekstereri belgilari bo'yicha bonitirovka qilish hamda klass toifasini aniqlash;

buqalarni bir xil saqlash, parvarishlash va oziqlantirish sharoitlarida sperma mahsuldorligini o'zgarishi bo'yicha zot xususiyatlarini o'rgangan holda, ularning o'sish va rivojlanishi, klinik va gematologik ko'rsatkichlarini aniqlash;

nasldor buqalarning yil fasllari va ma'lum bir yosh davri oralig'ida sperma mahsulotini olishda kun tartibini ishlab chiqish;

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Naslchilik ilmiy - ishlab chiqarish markazi (O'zlaschilik davlat korxonasi)ga Germaniyadan import qilingan naslli golshtin zotli (qora-ola tusli) nasldor buqalar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti ushbu Germaniyadan import qilingan golshtin zotli nasldor buqalarning O'zbekistonning keskin o'zgaruvchan iqlimiga moslashishi, klinik va gemologik ko'rsatkichlari, buqalarning urug'ining (sperma) miqdor va sifat ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni bajarishda Hamdo'stlik davlatlarining Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash Davlatlararo Kengashi (MGS) ning 01.07.2015 yil, «Urchitish vositalari, buqalarning yangi olingan, suyultirilmagan spermasi», GOST – 23745-2014 va muzlatilgan spermani baholashda 29.05.2015 yil, «Urchitish vositalari, buqalarning chuqur muzlatilgan spermasi», GOST - 26030-2015-davlatlararo standarti texnik shartlariga asosan, qo'shimcha tadqiqotlarda esa umum qabul qilingan zootexniya tadqiqot usullaridan foydalanildi, shu jumladan, tirik vazni o'sishi S.Broudi usulida (1978), eksteryer ko'rsatkichlari va tana o'lchamlari N.A.Kravchenko (1963) usulida, umumiy gematologik tahlil etishda eritrotsit va leykotsitlar Gorayev kamerasida, gemoglobin Sali gemometrida aniqlandi, iqtisodiy samaradorlik G.M.Loza va V.Y.Udovchenkolar (1980) usulida hisoblandi, tadqiqot natijasida olingan ma'lumotlarga Mf Office, EXCEL dasturidan variatsion statistik (N.A.Ploxinskiy,1969) qayta ishlash usulidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor O'zbekistonda Germaniyadan import qilingan golshtin zotli (qora-ola tusli) nasldor buqalarni ota onasinig genetik indeksleri bo'yicha tanlab olingan

buqalarni optimallashtirilgan oziqlantirish va kun tartibi sharoitlarida trik vazni zot standart vaznida 1,7 % ga oshganligi ekstereri, tana tuzilish indeksleri darajasi 11-13 % ga oshganligi aniqlangan;

buqalarning kun tartibiga qat'iy amal qilishi natijasida sperma miqdori tegishli 6-7 va 6-8 ml ga to'g'ri kelib, ularning har biridagi sperma konsentratsiyasi tegishli 1,4-1,8 mlyard va 1,5-2,0 mlyardga tengligi aniqlangan;

buqalardan urug' (sperma) olish mo'tadillashgan, urug'lar muzlatilgandan so'ng qayta jonlantirilganda jonlanish darajasi 56% dan yuqoriligi aniqlangan;

mahsuldorlik va nasldorlik hamda eksterer indeksleri yuqori, I- guruh buqalarda tegishli 136, 144 va 125% teng bo'lsa, II- buqalar guruhida 121, 135 va 125% ga oshishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Golshtin zotli buqalar yoshi va yil fasllari bo'yicha iqlimga moslashganligi va urug' mahsuldorlik ko'rsatkichlari tadqiq etish natijalaridan kelib chiqib tashkil etilgan 27 ming doza urug' olingan va uning urug olish 12 % oshishiga erishilgan;

buqalarning ajdodlarining nasldorlik va mahsuldorlik ko'rsatkichlari bo'yicha OTOT (otasining-otasi), ONON (onasining-onasi) va boshqalar baholangan;

nasldor buqalarni korxonada saqlash va parvarishlash sharoitida ularning mahsuldorlik ko'rsatkichi 15–20 % ga oshdi.

nasldor buqalarning qat'iy kun tartibi asosida parvarishlanganda yoshi, yil fasllari va zot xususiyatlarini inobatga olgan holda xo'jaliklarda foydalanishning optimal muddatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlar zamonaviy innovatsion usullardan foydalangan holda olib borilganligi, natijalar Toshkent davlat agrar universiteti hamda O'zlaschilik davlat korxonasi (Naslchilik ilmiy ishlab chiqarish markazi) aprotatsiya komissiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari hamda birlamchi hujjatlar bo'yicha ijobiy baholanganligi, olingan materiallar matematik-statistik usullar bilan qayta ishlov berilganligi va ularning ishonchliligi aniqlanganligi, tadqiqot natijalari ishlab chiqarishga joriy etilganligi hamda dalolatnomalar va ma'lumotnoma vakolatli davlat tuzilmasi tomonidan tasdiqlanganligi, olingan ilmiy natijalarni nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan baholanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, qilingan Golshtin zotli qoramollarni bosh sonini ko'paytirish va takomillashtirishda yuqori mahsuldor buqalar spermasi olishda iqlimga moslashish va kun tartibining nazariy asoslari ishlab chiqilgan, sperma mahsuldorlik bo'yicha o'ziga xos zot xususiyatlarini inobatga olgan holda yangi avlod xayotchanligi sut mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari amaliy ahamiyati shundan iboratki, xulosa va takliflar asosida O'zbekiston sharoitida Golshtin zotli buqalardan optimal xo'jalik foydalanish muddatlarini belgilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda ko'rsatilgan, miqdor va sifat jihatdan maqsadga muvofiq sperma mahsuloti zahirasini yaratishni oqilona tashkil etishning iqtisodiy afzalliklari aks etganligi bilan baholanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Golshtin zotli nasldor-spermodonor buqalar sperma mahsuldorligi va ulardan optimal xo'jalik foydalanish muddatlarini ilmiy tahliliy asosida:

“O'ZNASLCHILIK” davlat korxonasiga import qilingan nasldor golshtin zotli buqalar sperma urug' mahsuldorligi bo'yicha joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2025 y., 25-iyun,

02/23-1855-son ma'lumotnomasi). Natijada korxonada iqtisodiy samaradorligi sof foyda o'rtacha bir bosh nasldor buqadan 4 140 600 so'm, rentabellik 14,9 % ga oshgan;

Andijon viloyati Andijon tumani "Muqumiy" naslchilik fermer xo'jaligida nasldor buqalar sperma mahsuldorlik ko'rsatkichlari bo'yicha joriy qilindi (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2025 y., 25-may, 02/23-1855-son ma'lumotnomasi). Natijada xo'jalikda iqtisodiy samaradorlik - bir so'm xarajatga 1,41 - 2,10 so'mdan daromad olingan, rentabellik 13,4% ga ko'tarilgan. Shu bilan birga birinchi tug'im yuqori fenotipli guruhdagi sigirlarda sof foyda bir bosh sigirdan 14 060 000 so'mni tashkil etgan;

Andijon viloyati Andijon tumani "Jonobod Chorvasi" naslchilik fermer xo'jaligiga birlashtirilgan nasldor buqalar urug'idan sun'iy urug'lantirish natijasida sigirlarni sut mahsuldorligini ko'paytirish ishlari o'rganilib joriy qilindi (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2025 y., 25-iyun, 02/23-1855-son ma'lumotnomasi). Natijada laktatsiya davomida sog'ib olingan sut miqdori, xo'jalik ko'rsatkichidan 195,9 - 216,8 kg ortiq bo'lgan. Sutni sotishdan olingan sof foyda bir bosh sigirdan 12 060 000 so'mni, rentabellik darajasi 14,9% ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari bo'yicha 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta patent (foydali model), 2 ta qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, 5 ta Respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda hamda 2 ta Respublika va 2 ta xorijiy konferensiya materiallari to'plamida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, ishlab chiqarishga tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 109 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda ob'yekti va predmetlari tavsiflangan, muammoni o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga muvofiqligi bayon etilgan, ilmiy yangiliklari, amaliy ahamiyati va ularning aniqlik darajalari, tadqiq qilish hamda aprobatsiya natijalari va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar sharhi**» bobida, golshtin zoti bo'yicha yaratilish tarixi, xususiyatlari, xo'jalik-foydali belgilarining tavsifi, respublikamiz va xorijiy ilmiy tadqiqotchilarning golshtin zotidan foydalanishda sof zotli urchitish hamda qora-ola zotli sigirlarni chatishtirishda har doim xorijiy davlatlar, jumladan Gollandiya, Germaniya, Kanada va AQSh va boshqa davlatlardan olib kelingan nasldor buqalarning muzlatilgan urug'lari ishlatilganligi bo'yicha ma'lumotlar, hamda ularning avlodlariga o'tkazgan irsiy xususiyatlari qizlarining sut mahsuldorligi

bo'yicha aniqlangan. seleksiya tizimini zamonaviy keng miqyosli naslchilik ishlarini joriy etishda podalarni va zotlarni takomillashtirishning ta'siri, nasldor buqalar (sperma) urug'idan foydalanish ularning biologik va xo'jalikda foydalanishda tana va sigirlarning mahsuldorligining ta'siri, nasldor buqalarning issiq iqlim sharoitiga moslashishi, klinik va gematologik o'rganishga asoslangan tadqiqot ishlariga oid mahalliy va xorij olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari tahlil qilingan. Mavzuga oid bir nechta olimlarning tadqiqot ishlari umumlashtirilib, qoramollarni issiq iqlim sharoitiga moslashish, organizmning tabiiy rezistentligi, yangi muhit sharoitlariga mollarning moslashishi, biologik ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari tahlil qilinib, umumlashtirilgan xulosalar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotlar ob'ekti va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning ob'yekti, tadqiqot sxemasi va uslublari bayon etilgan. Tadqiqot ob'yekti Toshkent viloyati, Qibray tumani "O'ZNASLCHILIK" davlat korxonasi qilib, korxonadagi golshtin zotli nasldor buqalarda o'tkazilgan va joriy etilgan.

Tadqiqot ishlari zootexniya, biologik va statistik usullarda bajarilgan. Har bir nasldor buqalarni saqlash tizimlari, oziqlantirish me'yori va xillari hisobga olingan. Buqalar ona ajdodlarining mahsuldorlik indeksini $OAMI = (2ON + ONON + OTON) : 4$ formula bo'yicha bajarildi. Bunda, ON - onasining mahsuldorligi; ONON - onasini onasi, ya'ni buvisining mahsuldorligi; OTON - otasining onasi - buvisining mahsuldorligi; OAMI - ona ajdodlar mahsuldorlik indeksi. Ona ajdodlari mahsuldorlik indeksi ularning sermahsul va nasldorligidan dalolat beradi. Buqalar ekstererini baholash 9 va 100 balli shkalada o'tkazildi, klinik ko'rsatkichlar Y.A.Arzumanyan (1957), issiqqa chidamlilik Y.O.Raushenbax (1975) usullarida, gemoglobin Sali bo'yicha, eritrotsitlar va leykotsitlar soni Goryaev kamerasida aniqlandi. Olingan materiallar Y.K.Merkureva (1970) ning biometrik usullarida ishlovdan chiqarildi. Tadqiqotlar natijalarining iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqarilgan mahsulot sarflangan xarajatlar va ularni sotishdan olingan daromadlar bo'yicha, sof foyda va rentabellik darajalarini hisoblash usullarida o'rganildi hamda tadqiqot natijalar tahlili seleksion belgilar oraliq'idagi farqlanishlikni ishonchli darajasi (P), shuningdek issiqqa chidamlilik indeksi (IChI) o'rganildi.

Dissertatsiyaning «**Tajriba natijalari**» deb nomlangan uchinchi bobida Respublikamizda sut yo'nalishidagi qoramolchilikni rivojlantirish va naslchilik ishlarini takomillashtirishda juftlashtirish rejasi va sun'iy urug'lantirish muhim o'rin tutadi. Qoramollarni to'g'ri juftlashtirish ularning nasl sifati va mahsuldorlik ko'rsatkichlarini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. O'zbekistonning issiq iqlim sharoitida turli xo'jaliklarida ko'p yillar davomida urchitib kelinayotgan golshtin va ularning turli chatishtirish, mahsuldorligini oshirish va podalarini takomillashtirishda golshtin zotli sinaluvchi buqalar urug'i bilan urug'lantirish maqsadli hisoblanadi. Tajribadagi buqalarning golshtin zotli sinaluvchi I va II guruhlardagi barcha buqalar belgilangan binoda bog'lab, motsion olishda mahsus qurilma yordamida bajarildi. Buqalar saqlash joylarida, joylashtirilgan oxurlarda oziqlantirildi. Shu bilan birga har bir nasldor buqani individual baholash va ularni bir-biri bilan o'zaro taqqoslaganimizda Ursel, Ursa va Uriel laqabli buqa otalari "John" va "Board" buqalar eng yuqori ko'rsatkichlarga egaligi aniqlandi.

Jumladan, Ayniqsa, mahsuldorlik (RZM), nasldorlik (RZG) va eksterer (RZE) indeksleri yuqori. Jumladan, nasldor lider buqalarda tegishli 136, 144 va 125% teng bo'lsa, nasldor buqalar guruhida 121, 135 va 125% ga to'g'ri kelgan. Sut tarkibidagi somatik xususiyatlarining ustivorligi nisbatan pastroq namoyon bo'lgan (110%), urchish xususiyatlar indeksi (RZN) 119-122% ni tashkil etgan bo'lsa, saqlanish va xo'jalik foydalanish indeksi 99-110% ga to'g'ri kelgan. Ma'lumki, sigirlar mahsuldorligini oshib borishi ularni urchish va saqlanish ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, nasldor lider buqalar otalari qizlarida (nisbatan yuqori mahsuldorlik) urchish indeksi 119 va saqlanish indeksi 99% bo'lsa, nasldor buqalar otalari avlodiniki 122 va 110% ga teng.



Golshtin zotli qora-ola, klassi elita-rekord, yoshi 42 oy, tirik massasi 910 kg, nasldor buqa



Golshtin qora-ola zotli, klassi elita-rekord, 40 oy tirik vazni 910 kg, nasldor lider buqa


Ursinus, Ulfilas va Uralu laqabli buqa otalarining mahsuldorlik indeksi 135 foizga ko'tarilishida, ularni saqlanishi va ulardan xo'jalikda foydalanish muddatiga xos indekslar 88-95 ga pasaygan. "Unit" laqabli buqa otasida mahsuldorlik indeksi (RZM) 96% va nasldorlik indeksi 116% bo'lishida, ulardagi urchish (RZN) va saqlanish (RZR) indeksleri 131 va 116 foizga ko'tarilgan. Ushbu ko'rsatkichlarda ham Unit laqabli buqa past ko'rsatkichlarga ega bo'lib, neytral buqa toifasiga xosdir.

Import qilingan golshtin zotli buqalar 10000-14240 kg sut beradigan sigirlardan olingan. Nasldor lider buqalar onalarining sut sog'imi 12433 kg, sut yog'i 467,5 kg va sut oqsili 417 kilogramm bo'lsa, nasldor buqalar onalariniki tegishli 10196 kg, 401,9 va 373,6 kilogrammga teng. Ya'ni, ushbu ko'rsatkichlarda lider buqalar ustivorlik qildi. Umuman olganda sutning past yog'liligi golshtin zotiga xos. Sut sog'imi yuqori bo'lsa-da uning yog'liligi guruhlar bo'yicha o'rtacha 3,56 va 3,77% ga teng. Ayrim sigirlar sutning tarkibidagi yog' 3,09-3,50% bo'lsa, boshqalariniki 4,0-4,57 foizgacha ko'tarilgan. Nasldor buqalar guruhida "Uralo" laqabli buqaning onasi 13384 kg sut berishida, yog' miqdori 3,12 va oqsil miqdori 2,81 foizni tashkil qilgan. Ayrim buqalar onalari ko'p sut berishi bilan undagi yog' va oqsil miqdorlari yuqoriligi bilan xarakterlanadi.


"Ursin" laqabli buqa onalarining sut sog'imi 14239 kilogrammga teng bo'lib, sutning tarkibidagi yog' miqdori 4,04% va oqsil miqdori 3,13 foizni, sut yog'i 575 kg

va sut oqsili 445 kilogrammni tashkil etgan. Shunday yuqori ko'rsatkichga Ursinus, Uris, Urali, Urmas va boshqa buqa onalari tenglashgan.


Import qilingan golshtin zotli buqalarning ayrimlari mashxur buqalar tizimi yoki qarindosh guruhlaridan kelib chiqqan. Jumladan, Uris va Ural buqalari Balisto buqasi qarindosh guruhidan, Urse, Urlas va Uriel buqalari Boss qarindosh guruhidan, Ulfilas, Uros va Urali buqalari Dorman buqa tizimidan. Ushbu buqa tizimi va qarindosh guruhlariga xos bo'lgan buqalar nasldor bo'lib, yuqori nasldorlik va mahsuldorlik sifatlariga ega



1-rasm. Balisto buqa tizimiga xos buqalar.



2-rasm. Boss buqa tizimiga xos buqalar



3-rasm. Dorman buqa tizimiga xos buqalar.

Keltirilgan rasm shakllaridan ko'rinib turibdiki tizim va qarindosh guruhlariga xos bo'lgan buqalar ajdodlari sifati hamda yuqori mahsuldorligi va kelib chiqish nasli bilan xarakterlanadi.

Naslchilik korxonasi tayyorlangan oziqalardan kelib chiqqan holda qishki, bahorgi va yozgi ratsionlar dag'al oziqalar (beda va tabiiy pichan) va balanslashtirilgan omixta yemlardan tashkil etadi. Korxonada mutaxassislarini buqalarni tirik massasi va ularga xos oziqalar normasi bo'yicha tuzilgan ratsion bo'yicha bir xil oziqlantirish tipida amalga oshirildi. (1-jadval).

1- jadval

Import qilingan yosh buqalarni qish, bahor va yoz davrida bir xil tipli ratsionda oziqlantirish ratsioni

Ko'rsatkichlar	Buqalarning tirik massasi, kg			
	300-400	401-600	601-700	701-800
Oziqa moddalari normasi				
Oziqa birligi, kg	9,1	9,4	9,8	10,3
Protein,	900	1000	1200	1350
Qand,	900	1000	1200	1350
Kalsiya,	58	67	70	73
Fosfor,	48	57	60	63
Karotin, mg	290	310	330	350
Vitamin, D ming m/ed	8,5	9,5	11,5	12,5
Vitamin E ming m/ed	290	310	330	350
Ratsion tarkibi				
Beda pichani, kg	6	6	6	6
Tabiiy pichan, kg	4	4	4	4
Balanslashtirilgan omixta yem, kg	3	3	4	5
Maydalangan jo'xori so'tasi, kg	-	1	2	2
Tuxum, dona	-	1	1	1
Osh tuzi,	80	80	80	80
Jami oziqa birligi	9,4	9,4	10,5	10,5

Dag'al oziqalar to'yimlilikining pastligi hisobidan to'ldirilganligi sababli ko'p xarajat qilingan. Buqalarga individual tarqatildi va iste'moli nazoratga olindi.

Jumladan yoz davrida har bir buqaga har kuni o‘rtacha tarqatilgan 4 kg beda pichani, 4 kg tabiiy pichan qoldiqsiz to‘liq iste‘mol qilgan. Kunlik birinchi oziqlantirishda 3 kg va ikkinchi oziqlantirishda ham 3 kg omixta yem berilgan. 1 dona tuxum ikkinchi oziqlantirishda yem bilan qo‘shib oziqlantirildi (2-jadval). 100 gektar yer maydonida 1054 tonna ozuqa birligi ishlab chiqishda har bir gektar yer hisobiga 10,5 t ozuqa birligi to‘g‘ri keladi.

2-jadval

Oziqabop ekinlarni asosiy, oraliq va takroriy maydonlarda joylashtirish strukturasi va mo‘l hosil yetishtirish programmasi

Oziqabop ekinlar	Ekinlarni joylashtirish strukturasi, %	Er maydoni, ga	Hosildorlik, s/ga	Yalpi hosildorligi, tonna	Yalpi oziqa birligi, tonna	Oziqa birligi salmog‘i, %
Beda (pichanga)	30	30	150	450	220	20,9
Arpa (donga)	20	20	35	70	89	8,4
Makkajo‘xori (donga)	20	20	120	240	312	29,6
Qizil sabzi	8	8	200	160	24	2,3
Oziqa qovog‘	7	7	200	140	21	2,0
Oraliq oziqabop ekinlar (senajga)	15	15	350	525	168	16,9
Takroriy makkajo‘xori (silosga)	-	15	400	600	120	11,4
Takroriy soya donga	-	20	35	70	100	9,5
Jami:	100	100	-	-	1054	100


100 gektar yer maydonida 1054 tonna oziqa birligi ishlab chiqishda har bir gektar yer hisobiga 10,5 tonna oziqa birligi to‘g‘ri keladi. Uning 47,5 foizi konsentrat oziqalarga (makkajo‘xori, arpa va soya doni), 26,9 foizi beda pichanga va 31,6 foizi sharali oziqalarga to‘g‘ri keladi. Har bir buqa hisobiga 10,5 tonna oziqa birligi ishlab chiqildi.

Ushbu oziqa zaxiralarini yaratishda buqalar uchun to‘yimli bo‘lgan oziqlantirish tashkil etiladi. Ratsionga beda pichani, makkajo‘xori silosi, oraliq ekinlar senaji, qizil sabzi, oziqa qovog‘i va omixta yemlarni, makro va mikro elementlarni va vitaminlarni kiritishda to‘la qiymatli oziqlantirishni tashkil etiladi (3-jadval).

Qora-ola golshtein zotli nasldor buqalar tirik vaznining iqlimga moslashish davrida o'zgarishi

T/R	Nasldor buqa		Tirik vaznini o'zgarishi						2018-2020 yillarda rivojlanish darajasi		Mutloq o'sish, kg		O'rtacha kunlik o'sish, gr			Iqlimga moslashish darajasi
	Laqabi	INV	2018 yil		2019 yil		2020 yil.		kg	%	2018-2019 y.y	2019-2020 y.y	2018-2019 y.y.	2019-2020 y.y	Sh.J.yoz 2020 y.	
			Yoshi, oy	Tirik vazni, kg	Yoshi, oy	Tirik vazni, kg	Yoshi, oy	Tirik vazni, kg								
I guruh buqalar																
1	Urirl	DE 01 22657319	13	400	25	720	37	850	450	112,5	320	130	889	361	1000	yoqori
2	Ursinus	DE 01 22195673	16	420	28	620	40	910	490	116,7	200	290	556	806	1000	yoqori
3	Uris	DE 01 22657335	16	420	28	620	40	770	350	83,3	200	150	556	417	636	yoqori
4	Urmas	DE 01 22657342	16	440	28	620	40	770	330	75,0	180	150	500	417	636	yoqori
5	Ulfilas	DE 01 22657309	15	420	27	740	39	890	470	111,9	320	150	889	417	909	yoqori
6	Uralo	DE 01 22633141	14	470	26	680	38	850	380	80,9	210	170	583	472	909	yoqori
II guruh buqalar																
1	Uralu	DE 01 22633203	14	410	26	770	38	820	410	100,0	360	50	1000	139	1000	yoqori
2	Unit	DE 01 2223695	16	420	28	620	40	840	420	100,0	200	220	556	611	1273	O'rtacha
3	Urim	DE 01 22657353	14	400	26	670	38	770	370	93,0	270	100	750	278	545	yoqori
4	Uros	DE 01 22657347	14	440	26	740	38	840	400	90,9	300	100	833	278	818	yoqori
5	Ursin	DE 01 22322727	18	500	30	780	42	910	410	82,0	280	130	778	361	455	yoqori

I-guruhdagi buqalar esa II guruhidagi buqalardan jadal rivojlanib, ularning o'rtacha kunlik o'sishi tegishli 828 va 661 grammni tashkil etadi. Lekin II guruhdagi Urika laqabli buqaning rivojlanishi jadal o'tib, o'rtacha kunlik vazn o'sishi 1000 grammga tenglashgan.



4-rasm. 2018–2020 yillar davomida nasldor buqalarni tirik vazn o'sish dinamikasining egri chizig'i

Dissertatsiyaning “Import qilingan nasldor buqalarning iqlimga moslashish xususiyatlari” deb nomlangan to'rtinchi bobida 2018 va 2020 yillarning yoz oylarida ertalab va tushda aniqlangan klinik ko'rsatkichlar fiziologik nazoratdan o'tgan. Harorat kunduzi havo haroratini 39-40°C gacha ko'tarilgan, nafas olish tezligi 35-47 marotaba/daqiqaga va tomir urish tezligi 64-77 marotaba/daqiqani tashkil etgan (4-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, barcha zotlarda tana harorati yozda ertalab bir xilda saqlangan. Nafas olish tezligida ma'lum farqlanishliklar mavjud,

bo'g'in urish tezligi ham zotlararo farqlanishlik kuzatiladi. Ularning issiqqa chidamlilik ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, 56-60 ga teng.

4-jadval

Golshtin nasldor buqalarni qish davridagi klinik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'rganilgan vaqt	Yoz davridagi (2018 y.) ko'rsatkichlari	Qish davridagi (2020 y.) ko'rsatkichlari
		Golshtin (n=6)	Golshtin (n=5)
Tana harorati, °C	Ertalab	38,2±0,1	38,1
	Tushda	38,6±0,1	38,5
Nafas olish tezligi, marotaba/daqqa	Ertalab	36,9±1,8	27,5
	Tushda	42,0±2,4	35,6
Tomir urish tezligi, marotaba daqqa	Ertalab	72,9±1,9	69,2
	Tushda	77,4±3,4	74,0
Havo xarorati, °C (04.01.2019 y.)	Ertalab	24	22
	Tushda	40	39
Issiqqa chidamlilik indeksi (IChI)		60	58

Zot guruhlari bo'yicha olingan klinik ko'rsatkichlar ular fiziologik holatini normal o'tishidan dalolat beradi. Ushbu ko'rsatkichlar har bir buqalarni individual fiziologik normasidir. Buqalarni yozda salqin va qishda iliq binolar ichida bog'lab saqlash va matsion o'tkazish sharoitlari ularni iqlimga moslashish xususiyatlarini shakllantirgan. Import qilingan buqalarni yozda salqin va qishda iliq binolarda saqlash texnologiyalari ularning fiziologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, yozgi va qishki iqlim sharoitiga moslashishni yengillashtirgan. Ularni barcha klinik ko'rsatkichlari fiziologik normada o'tgan.

Qishning 4 yanvar kuni ob-havo nisbatan iliq lekin namgarchiligi kuzatiladi. Havo harorati kechasi va kundizi +5°C ga to'g'ri kelgan va yomg'ir yog'ishi kuzatilgan. Ushbu ob-havo sharoitida buqalarning fiziologik faoliyati norma darajasida bo'lgan.

Tajribada bo'lgan buqalardan 20 iyul va 5 yanvar kuni qon olinib, ularning gematologik ko'rsatkichlari o'rganilgan (5-jadval).

5-jadval

Import qilingan nasldor buqalar gematologik ko'rsatkichlarini iqlimga moslashish davrida o'zgarishi

Ko'rsatkichlar	Zotlar	
	I-guruh (n=6)	II-guruh (n=5)
yoz davrida (2018 y.)		
Gemoglobin, g/%	11,23±0,4	11,6±0,3
Eritrotsitlar, million/mm ³	7,5±0,3	7,1±0,3
leykotsitlar, ming/mm ³	8,5±0,1	8,5±0,1
qish davrida (2019 y.)		
Gemoglobin, g/%	11,69±0,73	11,75±1,1
Eritrotsitlar, million/mm ³	7,38±0,31	7,30±0,29
leykotsitlar, ming/mm ³	7,77±1,6	7,85±0,94
yoz davrida (2020 y.)		

Gemoglobin, g/%	11,6±0,72	11,1±0,67
Eritrotsitlar, million/mm ³	7,6±0,3	7,5±0,3
leykotsitlar, ming/mm ³	7,7±0,5	7,5±1,25

Gematologik ko'rsatkichlarda zotlararo keskin farqlanishlik kuzatilmaydi. Qish oyidagi (2019 y.) ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha gemoglobin va eritrotsitlar miqdori yoz oylarida (2018 y.) me'yorida bo'lsa, leykotsitlar miqdori yoz oyida 8,37-8,53 milliondan qishda 7,77-7,91 millionga tushgan. Organizmdagi oksidlanish va tiklanish jarayonlari fiziologik normada o'tgan.

Buqalarni parvarishlashda ularni rivojlanishini standart talablarida ta'minlab borishda tajribadagi buqalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari 2018-2020 yillarda har bir nasldor buqalardan 2019 yil (may) – 2020 yil (sentabr) oylarida olingan sperma mahsuldorligini miqdori va sotilgan qismi bo'yicha hisoblab chiqilgan ma'lumotlarni quyida jadvalda keltirdik (6-jadval).

6-jadval

Tajribaning iqtisodiy ko'rsatkichlari

(zotlar guruhlarini bo'yicha, 2018-2020 y., bir bosh hisobida)

Ko'rsatkichlar	Guruhlar	
	sinaluvchi golshtin I-guruh	sinaluvchi golshtin II-guruh
Buqalarning soni, bosh	6	5
Jami buqalarning tannarxi, million so'm	248	207
Sh.j.1 bosh buqaniki, ming so'm	41406	41406
Jami olingan urug', ming doza	251	226
Jami urug'larning tannarxi, million so'm	538	184
Sh.j. 1 doza urug'ning tannarxi, so'm	2145	2145
Jami sotilgan doza, ming doza	18,5	5,9
Jami sotilgan urug'ning narxi, million so'm	45,6	14,5
Sh.j. 1 doza urug'ni sotish narxi, so'm	2466	2466
Sperma zaxirasida qolgan jami urug', ming doza	233	220
Urug'ni sotishdan olingan jami foyda, million so'm	5,9	5,9
Sh.j. 1 doza urug'ni sotishdan olingan foyda, so'm	321	321
Zaxirada qolgan urug'larni sotish narxi, million so'm	572,2	562,2
Ulardan qoladigan sof foyda, million so'm	72,5	70,8
Jami urug'lardan keladigan foyda, million so'm	78,1	72,3
Sotilgan jami urug'ning rentabellik darajasi, %	14,9	14,2

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, barcha doza urug'lar golshtin zoti I-guruh bo'yicha 251 ming, II-guruh bo'yicha 226 ming dozadan tayyorlangan bo'lsa, paet shaklidagi 1 doza urug'ning tannarxi 2145 so'm. Ularni sotish narhi guruhlar bo'yicha tegishlicha 3225 so'mdan to'g'ri kelgan.

Zamonaviy texnologik usuldagi paet doza urug'larini tayyorlash taklif etiladi. Chunki, undan sun'iy urug'lantirishda foydalanish samarali hisoblanadi.

Guruhlardagi buqalarning har biridan golshtin zotida o'rtacha 32 ming doza urug' olingan va uning 21346 ming dozasi (66,7%) sotilgan. Eng ko'p urug' bergan I-guruhlariga to'g'ri keladi.

Urug'larni sotishdan golshtin zotili I – guruhda 18,5million, II – guruhda 15,9 million so'm, sh.j. bir boshdan 1,1 ming so'm daromad guruhlar bo'lsa, tegishlicha 5,9 million so'mni, 1,0 ming so'mni tashkil qilgan. Rentabellik darajasi I - guruhda 14,9, II – guruhda 42,2 foizni tashkil etadi.

Sperma banki zaxirasidagi qolgan urug'larni sotishda katta miqdorda foyda olinadi. Urug'larni miqdori va iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha I - guruhda zotida Uriel va II - guruhda Ulfilas laqabli buqalar ustunlikka ega. Nasldor zotli nasldor buqalarni import qilish va ulardan foydalanishda yuqori miqdorda iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

XULOSALAR

Ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Respublikamizning issiq iqlim sharoitiga moslashish darajasi hamda biologik va xo'jalik ko'rsatkichlarini namoyon qila oladigan Germaniyadan olib kelingan naslli buqalarni, naslchilik guvohnomalaridagi ajdodlarining sifatlari aniqlanib, ular ichidan eng maqbul bo'lganlarini I-guruhga 6 bosh, II-guruhga 5 bosh tanlab olindi.

2. Buqalarni kelib chiqish shajarasida mavjud bo'lgan ajdodlari bo'yicha nasldorlik indeksleri, golshtin zotining ko'rsatkichlarda genom indeksi (RZG) turli buqalarda 111-144% ga teng, mahsuldorlik indeksi (RZM) 96-144%, eksterer indeksi (RZE) 105-133%, somatik xujayralar indeksi (RZS) 88-131%, urchish indeksi (RZN) 83-131%, xo'jalikda foydalanish davomiylik indeksi (RZR) 88-118%. Ushbu tadbirlarga xos bo'lgan buqalar tanlanib, past darajalari brak qilindi.

3. Ona ajdodlarining mahsuldorlik indeksleri, ularning sut sog'imi 9877-12609,8 kg, sut yog'i 443-511 kg, sut oqsili 378-430 kilogrammni tashkil etishi ularning sermahsul va nasldor ekanligidan dalolat beradi.

4. Import qilingan buqalarni issiq iqlim sharoitiga moslashish darajasi aniqlanib, har bir guruhda "yuqori darajada", "o'rta darajada" va "past darajada" moslashgan buqalar rivojlanishi bo'yicha aniqlab baholandi va tanlandi. Shu bilan birgalikda issiq iqlim sharoiti yoz davrida ayrim ko'rsatkichlarga salbiy ta'sir ko'rsatganligini aniqlandi. Bu ayniqsa, sperma mahsuldorligini shakllantirishda kuzatildi.

5. Buqalarni rivojlanish darajasi va uning eksterer va indeks xususiyatlari har bir buqa bo'yicha o'rganib taqqoslab borildi. 2018-2020 yillarda zotlar bo'yicha yag'rin balandligi o'sishi 63-13 foizni, tos balandlik o'sishi o'lchovi 2,0-9,0%, ko'krak kengligi 2,0-29,3%, ko'krak chuqurligi 4,0-24% va tananing qiya uzunligi 6,0-26% ga oshdi.

6. Sperma mahsuldorligi guruhlar bo'yicha buqalarga mos ravishda shakllanib bordi. Yoz davrida guruhlar bo'yicha sperma miqdorini 6-7 ml, kontsentratsiyasi 1,5-1,9 mlyard va sifatini 9 ballga to'g'ri kelgan bo'lsa, kuz oyida iqlimning yumshashi va oziqlantirish qiymatini ko'tarilishida buqalarning semizlik konditsiyasi ko'tarildi

hamda sperma mahsuldorligining sifati yaxshilandi. Jumladan, spermaning miqdori 6-8 ml, kontsentratsiyasi 1,6-2,2 mlyard, va sifati 10 ballga ko'tarildi. Iqlimning yumshagan davri va jadal oziqlantirish texnologiyasi o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

7. Buqalarni sperma banki to'ldirildi. Golshtin zotli qora-ola tuslibuqalardan olingan sperma miqdori o'rtacha bir boshga 32,0 ming dozani tashkil etadi. 2018-2020 yillarda olingan buqa urug'larining juda oz qismi viloyatlar tomonidan olinganligi golshtin qora-ola zotining atigi 9,1% urug'i xo'jaliklarga sotilgan.

8. Barcha toifadagi xo'jaliklarda sun'iy urug'lantirishni tashkil etishni tegishli tashkilotlarda talab etish dolzarb hisoblanadi. Sun'iy urug'lantirishni ommalashtirish naslchilik ishining bosh mezonini hisoblanib, guruhlar takomillashadi, mahsuldorligi oshib boradi, naslchilik podalari shakllanadi.

9. Import qilingan buqalarni parvarishlash ulardan urug'(sperma) olish va xo'jalikda foydalanishda kun tartibiga qat'iy amal qilish, buqalarga oziqlantirish, cho'miltirish, urug' olishga olib chiqish va boshqa tadbirlarda muloyim munosabatda bo'lish talab qilinadi. Naslli buqalarga qo'pol munosabatda bo'lish, baland ovozda gapirish va kun tartibini keskin o'zgartirish ularning sog'ligiga, urug' sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida to'g'ri tanlash va baholash, kun tartibiga qat'iy amal qilish, to'g'ri parvarishlash urug' sifatiga, sog'ligiga va iqlimga moslashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

10. tadqiqot natijalari bo'yicha urug'larni sotishdan golshtin qora-ola zotili I-guruhda 18,5 million, II-guruhda 15,9 million so'mni tashkil qilgan. Rentabellik darajasi I - guruhda 14,9, II-guruhda 14,2 foizni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.05/30. 12. 2019. Qx.13.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ АГРАРНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

МАМТАЛИЕВ ШЕРЗОДБЕК СОДИҚДЖОНОВИЧ

**ОТБОР И ОЦЕНКА ИМПОРТИРУЕМЫХ ИЗ-ЗА РУБЕЖА
ПЛЕМЕННЫХ БЫКОВ ГОЛШТИНСКОЙ ПОРОДЫ ПО ГЕНОТИПУ В
УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА**

06.02.03 – Частная зоотехния. Технология производства продуктов животноводства

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2025.2.PhD/Qx978.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Ташкентском государственном аграрном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) в веб-сайте Научного совета (www.tdau.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Досмухамедова Мухайё Хуснитдиновна**
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Официальные оппоненты: **Мадрахимов Шодлик Назарович**
доктор сельскохозяйственных наук (DSc), доцент

Амиров Шавкат Кузибаевич
кандидат сельскохозяйственных наук, профессор

Ведущая организация: **Научно-исследовательский институт
животноводства и птицеводства**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 года в «___» на заседании Научного совета PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 при Ташкентском государственном аграрном университете. (Адрес: 100140, г. Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел.: (99871) 260-48-00; факс: (99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz Активный зал, 2-этаж, Административное здание Ташкентского государственного аграрного университета, 2 этаж, конференц-зал)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного аграрного университета (зарегистрирована под номером 555426): Адрес: 100140, г. Ташкент, ул. Университетская, 2. ТашГАУ, здание ИРЦ, 1 этаж. Тел.: (99871) 260-50-43.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года
(протокол реестра № ___ от «___» _____ от 2025 года).

Ш.Р. Умаров
Председатель Научного
совета по присуждению
ученых степеней, д.с-х.н.,
профессор

А.Н.Батирова
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению
ученых степеней, д.с.х.н.
(DSc), доцент

К.Ж.Шакиров
Председатель Научного
семинара при Научного
совете по присуждению
ученых степеней, д.с-х.н.,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В крупных аграрно-развитых странах мира животноводство, особенно скотоводство, является одной из важнейших отраслей. Сегодня основными задачами являются формирование молочных и племенных стад крупного рогатого скота и улучшение селекционных показателей за счёт скота с высокой продуктивностью и племенными качествами. По данным Продовольственной и сельскохозяйственной организации ООН (ФАО), «поголовье голштинской породы в США составляет 9,5 млн голов, в Китае – 6,5 млн голов, в Индии – 5 млн голов, в Бразилии – 3 млн голов, в России – 2 млн голов»⁴. Для повышения экономической ценности крупного рогатого скота особое внимание уделяется увеличению поголовья скота путём повышения его продуктивности и племенных качеств, при этом особое внимание уделяется разработке полноценного кормового рациона современным условиям содержания и ухода за скотом.

В свою очередь, в развивающихся странах ведутся селекционные исследования, направленные на совершенствование селекции и разведения крупного рогатого скота, и достигаются положительные результаты. В настоящее время, в период глобальных изменений природного климата регионов, проводятся интересные исследования по поддержанию продуктивности и племенных качеств молочного и мясного скота на прежнем уровне путем широкого внедрения в производство вновь созданных пород и использования новых инновационных технологий их содержания. Расширение тематики научных исследований, направленных на улучшение племенных качеств путем разведения высокопродуктивного голштинского скота и адаптации его к экстремальным природно-климатическим условиям различных регионов, имеет большое научное и практическое значение.

В нашей стране особое внимание уделяется развитию животноводческой отрасли, и за счет широкого внедрения современных методов и инновационных технологий в развитие отрасли особое внимание уделяется сохранению хозяйственно ценных качеств импортного скота, в том числе молочной и мясной продуктивности, и удовлетворению потребности населения в мясной и молочной продукции за счет ее локализации. Установлены такие задачи, как «... бесперебойные поставки на внутренний рынок высококачественной и доступной по цене продукции животноводства и птицеводства, расширение производственных мощностей и повышение эффективности государственной поддержки животноводческих и птицеводческих хозяйств»⁵. Исходя из вышеизложенного, важное практическое значение имеет сохранение в нашей стране племенных хозяйств чистопородных быков черно-пестрой породы, завезенных из-за рубежа, их отбор на высокие показатели

